



## BOSHLANG'ICH SINFLAR TA'LIMIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

***Qurbonova Baxtixon Quchqorboyevna***

*Filologiya fanlari nomzodi*

*Farg'ona davlat universiteti dotsenti*

***Abdullayeva Gulchexra Tavakkalovna***

*Farg'ona davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada boshlag'ich sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish savodxonligi darslari misolida axborot kommunikatsion texnologiyalarning qo'llanishi mumkin bo'lgan usullari berilgan bo'lib, undan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari va o'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ona tili va o'qish savodxonligi, ta'lim usullari, zamonaviy metodlar, axborot kommunikatsion texnologiyalar.

Bugungi raqamli axborot sharoitida mamlakatimizda ta'lim berish jarayonida AKTdan samarali foydalanish muhim masaladir. Aynan AKT ta'limning universal vositasi hisoblanib, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan birgalikda ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, qiziqishlarini orttiradi.

Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotgan davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, yangilikni o'rganishga doim tayyor bo'lgan, hamkorlikdan cho'chimaydigan, muloqotga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo'lishi kerak<sup>1</sup>. Bu jarayonda ta'limda AKTning qo'llanishi maqsadga erishish yo'lidagi to'g'ri qadamdir.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, AKT o'quvchilarning nazariy, ijodiy va reflektiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi<sup>2</sup>.

AKTning darslarga tadbiiq etilishidan ko'zlangan asosiy maqsad – raqamlashtirilgan muhitga xos bo'lgan o'quv faoliyatining yangidan-yangi turlarini yuzaga kelishidir.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim – ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi – ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni,

<sup>1</sup> Masharipova U. va boshqalar. Ona tili (metdik qo'llanma). – Toshkent, 2015. – B. 3.

<sup>2</sup> <http://uz.infocom.uz/2012/10/30/boshlangich-sinflarda-akt/>





mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta'lim jarayoniga AKTni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz<sup>3</sup>.

Ta'lim jarayonining yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda ta'minlovchi dasturlarning yaratilishi bo'ldi. O'quv jarayoni davomida turli dasturiy vositalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. E'learning uchun darslik va qo'llanmalarni "Macromedia Flash", "Cursera", "GIF Animation", "Microsoft Front Page", "C++", "Abope photoshop", "3D Max", "Microsoft PowerPoint", "AutoPlay" kabi dasturlarda yaratilganligi qulaylik tug'dirmoqda. Chunki bu dasturiy vositalar rangli, harakatli va ovoqli tasvirlar yaratish imkonini beradi. Bu kabi dasturiy vositalardan foydalanib yaratilgan multimedia vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlarini orttirib, o'tilayotgan mavzularni tez va oson tushunib olishlariga yordam beradi. AKTdan unumli foydalanish o'quv jarayonini individuallashtirish va differentsiatsiyalash uchun turli imkoniyatlar yaratadi. AKT kichik yoshli o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini oshiradi, ularda ijodga qiziqish hissini shakllantiradi, malaka va ko'nikmalarni egallash, shuningdek, egallagan bilimlarini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ta'limda noan'anaviy shakl va metodlar yaratishga imkon beradi. Darslarda bolalarda bilim olish uchun zarur bo'lgan fikrlash, tasavvur qilish jarayonini rivojlantirishga yordam beradi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanilganda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish osonlashdi. Ta'lim jarayoni esa samarali tashkil qilina boshlandi.

Ona tili va chet tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin<sup>4</sup>. Bu jarayonda AKTdan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish so'z boyligini oshirishga, qoidalarni amaliy qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga, mustaqil fikrlashga yordam beradi. Ta'limning sifati va samaradorligiga erishiladi.

Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiya uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differentsiatsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi<sup>5</sup>.

Kompyuterdan foydalanishda ona tili darslari uchun "Video topishmoq" o'yini o'quvchilarni darsga qiziqtirishning qulay usullaridandir. Bu usul orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq qobiliyatini rivojlantirish, o'z nutqini to'g'ri va ravon bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi<sup>6</sup>. Bu jarayonda mavzu asosida turli rasmlar (tarixiy shaxs, joy, tabiat tasviri, mehnat jarayoni va boshqa) tanlab olinadi, ular slaydlar ko'rinishida taqdim qilinadi. "Video

<sup>3</sup> <http://uz.infocom.uz/2012/10/30/boshlangich-sinflarda-akt/>

<sup>4</sup> <http://uz.infocom.uz/2012/10/30/boshlangich-sinflarda-akt/>

<sup>5</sup> <http://uz.infocom.uz/2012/10/30/boshlangich-sinflarda-akt/>

<sup>6</sup> <https://bolalardunyosi.uz/content/read1094.html>





topishmoq” shartiga ko‘ra, rasm asosida og‘zaki yoki yozma matn tuzish topshiriladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini bayon qiladi. Shuningdek so‘zlarning shakl va mazmun jihatdan turlari (omonimlar, ma‘nodosh sozlar, zid ma‘noli so‘zlar)ni o‘rganish darslarida, so‘z leksik mazmunini talqin qilishda turli didaktik o‘yin va testlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishida ijobiy samara beradi. Zid ma‘noli so‘zlar ustida ishlashga bag‘ishlangan «Teskari o‘yin» testidan foydalanish ham ijobiy ta‘sirga ega.

1-sinfda o‘qish darsida elektron o‘quv qo‘llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so‘zni tovushli-harfli tahlil qilish, so‘zning bo‘g‘inlari tuzilishi, ba‘zi orfogrammalar o‘rganilishi turli qiziqarli ko‘rgazmali va ovoqli material berish mumkin<sup>7</sup>. Shuningdek, harflarni, so‘zlarni qo‘shib o‘qish, so‘ngra kichik matn yoki hikoyalarni o‘qish bo‘yicha multimedialarda foydalaniladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun RTM tomonidan yaratilgan “Sanashni o‘rganamiz”, “Alifbo saboqlari”, “Aljabr”, “5x5” kabi elektron dasturlar o‘zining qiziqarliligi, o‘quvchilar yoshiga mosligi, [foydalanish uchun soddaligi](#), intellektual salohiyatni rivojlantirish, mantiqiy mushohada yuritishga chorlashi bilan ahamiyatlidir<sup>8</sup>.

“Alifbo saboqlari” - 1-sinflar uchun yaratilgan dastur bo‘lib, o‘quvchilarga savod chiqarish paytida harflarni o‘rgatishga mo‘ljallangan. Dasturda katta va kichik harflarning berilishi, yozilishi va o‘qilishi keltiriladi. Rasmlar orqali shu harflar qatnashgan so‘zlarni o‘rgatadi. Mustahkamlash qismida rasm ostidagi kataklarga rasmda tasvirlangan narsaning nomi kiritiladi. Bu bilan o‘quvchilarning orfografik bilimlari ham mustahkamlanadi, shuningdek, kompyuterda ishlash malakasi ham shakllantiriladi. Dasturdan mavzu asosidagi testlar ham joy olgan.

Matematika darslarida oddiy amallardan foydalanib, slydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli «O‘yinli masalalar» tashkil qilish mumkin. Turli murakkabligi turlicha darajada bo‘lgan topshiriqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan “Aljabr”, “Boshlang‘ich sinflar uchun qo‘shish, ayirishni mustahkamlash”, “Sanashni o‘rganamiz”, “5x5” singari dasturlar yaratilgan.

“Aljabr” dasturi 1-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan dastur bo‘lib, bu dastur orqali o‘quvchilar 10 ichida sanash, raqamlarni to‘g‘ri tartiblash, ularni o‘zaro taqqoslash, shuningdek, 10 ichida qo‘shish va ayirishni o‘rganadi.

“Boshlang‘ich sinflar uchun qo‘shish, ayirishni mustahkamlash” dasturi “Aljabr” dasturiga nisbatan murakkablashtirilgan ko‘rinishda. Bu dasturda sonlar chegarasini kiritish mumkin. Chegarani o‘qituvchi o‘tayotgan mavzusi nuqtai nazaridan belgilaydi. 1-sinfning birinchi yarmida bu chegara 10 yoki 100 oralig‘ida qilib belgilansa, ikkinchi sinfda bu chegarani 1000 liklar ichida belgilish mumkin.

“Sanashni o‘rganamiz” dasturi orqali o‘quvchilar qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallarini bajarishni o‘rganadilar. Shu bilan birgalikda kompyuterning “sichqoncha” qurilmasidan foydalanish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

<sup>7</sup> <http://uz.infocom.uz/2012/10/30/boshlangich-sinflarda-akt/>

<sup>8</sup> <http://hozir.org/14-maruza-boshlangich-sinflarda-zamonaviy-texnologiyalar-oquv.html>





“5x5” dasturi ham o‘quvchilarga ko‘paytirish amalini bajarishni o‘rgatadi. Dasturda takrorlash qismi mavjud bo‘lib, bunda o‘quvchi berilgan mashqlarni yechadi. Bola bir xonani bajarmasdan turib, ikkinchisiga o‘tolmaydi. Natijada ular o‘z ustida ishlashga majbur bo‘lishadi.

Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to‘xtalish, o‘quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat. Boshlang‘ich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo‘llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinalardan foydalanish mumkin.

«Tabiatshunoslik» fani bo‘yicha barcha mavzulari bo‘yicha kompyuter testlarini ishlab chiqish mumkin. Masalan: «O‘lkamiz suv havzalari», «Ona zamin», «O‘rmon va dalalar – tabiat boyligi», «Qishloq xo‘jaligi sohalari», «Bizning o‘lka», «Yer osti boyliklari», «O‘lkamiz hududiy tuzilishi», «O‘lka chorvachiligi va o‘simliklari» va boshqalar<sup>9</sup>.

Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o‘quvchining og‘zaki nutqini rivojlanishiga, og‘zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun elektron qo‘llanmalar darslarda xilma xillikga erishishga, bolalarni o‘qitishda individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlari sizga elektron manbalardan foydalangan holda har qanday mavzu bo‘yicha tez va eng muhimi sifatli dars tayyorlashga imkon berishi haqiqatdir. Ushbu darslarni o‘tkazish uchun faqat bitta kompyuter va tasvirni ekranga o‘tkazadigan multimedia proyektori kerak bo‘ladi. Bu har bir o‘qituvchi uchun juda qulaydir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o‘qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o‘quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o‘qishga o‘rgatish – zamonaviy boshlang‘ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflar ta’lim jarayonida AKTdan foydalanish faqat asosiy yo‘nalishlari shakllanadi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda AKTdan keng foydalanish birinchi navbatda, bu turli hisobotlarni tayyorlash, sinfdan tashqari tadbirlarni o‘tkazish va shu kabilardan iborat bo‘ladi<sup>10</sup>.

Dars yorqin, samarali, hissiy, esda qolarli va ifodali, materialni to‘g‘ri va osongina tushuntirish, eng muhimi, har bir o‘quvchini o‘quv jarayoniga jalb qilish, o‘qishga individual yondashuvni amalga oshirish kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Shundagina bolalarga beriladigan bilimlar uzoq vaqt saqlanib qoladi, poydevorning mustahkam poydevori bo‘lib, uning asoslari bundan keyin ham shakllanadi.

#### Literature.

1. Abduvaliyeva, N. A. (2020). SOME FORMS OF REFERENCE (ADDRESSING) IN UZBEK DRAMAS. *Theoretical & Applied Science*, (1), 23-26.

<sup>9</sup> <http://uz.infocom.uz/2012/10/30/boshlangich-sinflarda-akt/>

<sup>10</sup> <http://uz.infocom.uz/2012/10/30/boshlangich-sinflarda-akt/>





2. Alisherovna, A. N. (2022). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF PERSIAN-TAJIK ACQUISITIONS USED IN GHAZALS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 925-932.
3. Alisherovna, A. N. (2022). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF PERSIAN-TAJIK ACQUISITIONS USED IN GHAZALS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 925-932.
4. Alisherovna, A. N. (2023). METHODS OF SPEECH DEVELOPMENT OF STUDENTS IN PRIMARY CLASSES. *Open Access Repository*, 4(3), 1019-1023.
5. Baydjanov, B. (2021). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION): <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1284>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.05).
6. Baydjanov, B. K. (2022). Methodology of Pedagogical Science and its Axiological Possibilities. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 352-363.
7. Jo'rayev Vohid Tojimatovich, A. M. (2022). Working With Geospatial and Descriptive Data in A Geoinformation System. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 113-116.
8. Kholdorova, I. (2019). SEMANTIC ANALYSES OF GENERATIVE LEXEMES WITH "BIRTH" AND "DEATH" SEMESIN THE UZBEK LANGUAGE. *Theoretical & Applied Science*, (10), 362-364.
9. Kochkorbaevna, K. B. (2022). FORMATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 56-60.
10. Kochkorbaevna, K. B. (2022). The Role and Importance of People's Oral Creativity in the Development of Primary School Student Speech. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(4), 57-61.
11. Kochkorbaevna, K. B., & Gulomova, O. (2022). Technologies for teaching students to think independently in the process of analyzing literary texts based on an innovative approach. *International Journal Of Culture And Modernity*, 13, 115-120.
12. Kochkorbaevna, K. B., & Hilola, I. (2022). Developing Pedagogical Abilities In Students Through Introducing Modern Forms And Methods Of Education In The Mother Tongue Teaching Process. *International Journal Of Culture And Modernity*, 13, 1-3.
13. Muhammedkadirovna, G. D. (2022). Main Categories of Media Text. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(4), 63-68.
14. Mukhammedkadirovna, G. D. (2023). ABOUT INDIVIDUAL STYLES. *Open Access Repository*, 4(3), 730-736.
15. Mukhtoraliyevna, Z. S. (2022). INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 162-165.







16. Mukhtoralievna, Z. S., & Saminjanovna, M. S. (2022). Formation of Future Primary School Teachers Skills to Use Project Activities. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 346-353.
17. Muxtoraliyevna, Z. S. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARINING IMLOSI USTIDA ISHLASHDA DIDAKTIK O 'YINLARDAN FOYDALANISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 473-478.
18. Rakhmonberdiyevna, T. S. (2022). RESEARCH OF CREATIVE ACTIVITY OF THE FUTURE PRIMARY CLASS TEACHER. *Conferencea*, 155-157.
19. Raxmonberdiyevna, T. S., & Shavkatjonqizi, S. M. (2021). Methods for the development of stochastic competence in mathematics lessons at school. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 863-866.
20. Tojimatovich, J. V. (2023). CONCEPT AND ESSENCE OF INFORMATION SECURITY. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(4), 643-647.
21. Tojimatovich, J. V. (2023). Digital Transformation of Educational Management System. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(4), 202-206.
22. Toshboyeva, S. R. (2020). Competent approach in teaching probability theory and mathematical statistics. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*.
23. Valijonovna, K. I. (2023). The Significance of Didactic Games in the Development of Written Speech in Children. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 17, 139-142.
24. Valijonovna, X. I. (2023). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITALARI ASOSIDA SAVOD ORGATISHGA OID KICHIK YOSHDA GI BOLALARNING KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 524-530.
25. Xoldarova, I. V., & Barakayeva, M. M. qizi. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL DARSLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(5), 265-270.
26. Xoldarova, I., & Akbarova, M. (2023). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA OQITISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(5 Part 2), 155-160.
27. Zokirova Sohiba Mukhtoralievna, & Soliyeva Mohigul Madaminxon kizi. (2023). Mnemotechnique Techniques in Pedagogical Work with Primary School Students. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 17, 77-84.
28. Zokirova, S. M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. *Sciences of Europe*, (8-2 (8)), 45-46.
29. Zokirova, S. M. (2020). Ta'limda axborot texnologiyalarining vujudga kelish tarixi. *Молодой ученый*, (18), 586-587.





30. Байджанов, Б. Х. (2020). Таълим жараёнида илғор хорижий тажрибаларни самарали қўллаш механизмлари. *Science and Education*, 1(2), 514-519.
31. Газиёва, Д. М. (2020). МЕДИАТЕКСТ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ТЕКСТООБРАЗОВАНИЯ. In *ПРОБЛЕМЫ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 141-146).

